

TIJORAT BANKLARINING MUAMMOLI KREDITLARINI KAMAYTIRISH YO'LLARI

Istamov Asilbek Ilhomovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti Iqtisodiyotni monetar tartibga solish yo'nalishi tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisning asosiy maqsadi tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirishning asosiy jihatlari va usullarini ilmiy-nazariy hamda amaliy tahlillar asosida yoritishdan iborat. Hozirgi kunda tijorat banklari kredit portfeli sifatini oshirish, kredit risklarini samarali boshqarish va muammoli kreditlarni kamaytirish bank tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda muammoli kreditlarning yuzaga kelish sabablari, ularni kamaytirish yo'llari hamda ATB "Agrobank" faoliyatida kredit risklarini boshqarish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: muammoli kreditlar, tijorat banklari, kredit portfeli, kredit riski, kredit monitoringi, bank likvidligi, kredit ta'minoti, restrukturizatsiya, Agrobank.

Kirish.

Tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan kredit portfeli sifatiga bog'liq hisoblanadi. Kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining ortishi banklarning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va foydaliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli muammoli kreditlarni kamaytirish va ularni samarali boshqarish bank tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Muammoli kreditlarning yuzaga kelishi kredit oluvchilarning moliyaviy holati yomonlashuvi, kredit ajratish jarayonidagi kamchiliklar, garov ta'minotining yetarli emasligi hamda kredit monitoringining sust tashkil etilishi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida mavsumiylik va bozor risklari yuqori bo'lishi kreditlarning qaytmaslik ehtimolini oshiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston bank tizimida kredit portfeli sifatini yaxshilash, muammoli kreditlarni qisqartirish va kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada ATB "Agrobank" faoliyatini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism.

Muammoli kreditlar tijorat banklari faoliyatidagi asosiy risklardan biri hisoblanadi. Ularning ortishi bank aktivlari sifatining pasayishiga, kreditlash hajmining qisqarishiga hamda bank foydasining kamayishiga olib keladi. Shu sababli tijorat banklarida kredit risklarini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarida muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- qarzдорlarning to'lov qobiliyatini yetarlicha baholamaslik;
- kredit ajratishda risk tahlilining sustligi;
- kredit monitoringining samarali tashkil etilmaganligi;
- garov ta'minoti qiymatining noto'g'ri baholanishi;
- iqtisodiy inqiroz va inflyatsiya darajasining oshishi.

ATB "Agrobank" faoliyatida qishloq xo'jaligi sohasi kreditlari asosiy ulushni tashkil qiladi. Mazkur sohada tabiiy omillar, hosildorlikning pasayishi va bozor narxlaridagi o'zgarishlar kredit risklarini oshiradi. Natijada ayrim kreditlar bo'yicha to'lov muddati buzilib, muammoli kreditlar yuzaga keladi.

Muammoli kreditlarni kamaytirishda quyidagi choralar muhim hisoblanadi:

1. Kredit oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish.

Bank kredit ajratishdan oldin mijozlarning daromadlari, pul oqimi va kredit tarixini batafsil o'rganishi zarur.

2. Kredit monitoringini kuchaytirish. Ajratilgan kreditlarning maqsadli ishlatilishi va qarzдорning moliyaviy holati doimiy nazorat qilinishi lozim.

3. Kredit risklarini baholash tizimini takomillashtirish. Zamonaviy scoring tizimlari va raqamli texnologiyalardan foydalanish kredit risklarini kamaytiradi.

4. Muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish. To'lov qobiliyati vaqtinchalik yomonlashgan mijozlarga kredit muddatini uzaytirish yoki qayta moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratish zarur.

5. Ichki audit va nazorat tizimini rivojlantirish. Banklarda ichki nazorat tizimini kuchaytirish kredit portfeli sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bank tizimi barqarorligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Muammoli kreditlarning ortishi banklarning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va kreditlash faoliyati samaradorligini pasaytiradi.

Shu sababli tijorat banklarida kredit risklarini samarali boshqarish, kredit monitoringini kuchaytirish va qarzдорlarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ATB "Agrobank" faoliyatida zamonaviy raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, kredit portfelinii diversifikatsiya qilish va muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kredit risklarini boshqarishning zamonaviy usullarini qo'llash va kredit monitoringini avtomatlashtirish muammoli kreditlarni kamaytirishda samarali natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlari.
3. Lavrushin O.I. (2018). Bankovskoe delo. Moskva: KNORUS.
4. Koch T.W., MacDonald S.S. (2015). Bank Management. USA: Cengage Learning.
5. Rose P.S. (2013). Commercial Bank Management. New York: McGraw-Hill.
6. Omonov A., Qoraliev T. (2019). Bank ishi. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
7. Basel Committee on Banking Supervision (2019). Guidelines on Credit Risk Management.
8. ATB "Agrobank"ning yillik moliyaviy hisobotlari.